
Oilaviy baxtiyorlik va mamnunlik

Karantin davrida eng yaxshi yumush – bu oila davrisida bo‘lish, farzandlar bilan kitob o‘qish.



Bugun minglab fuqarolarimiz o‘z xonadonlarida oilalari uchun vaqt ajratib, mehr-oqibat, oilaviy munosabatlar naqadar muhimligini tushunib yetayotgan bo‘lsalar ne ajab.

Turmush o‘rtog‘im, farzandlarim ajoyib odamlar ekan, degan hazil gaplarni ham aytishdi. Eng muhimi, oilaviy baxtiyorlik va mamnunlik emasmi?!



Farg'ona shahar hokimligi tomonidan bugun shaharda istiqomat qilayotgan, karantin tartibiga qat'iy rioya qilayotgan fuqarolarimiz uchun 7 ta mahallada oziq-ovqat yarmarkasi tashkil etildi. Aholining asosiy iste'mol mahsulotlari bo'lgan - un, yog', kartoshka, guruch, sabzi, piyoz, choy, tuz kabi mahsulotlarning arzonlashtirilgan savdosi ularga bir qancha yengilliklar berdi. Birinchidan, avtotransport harakatlanishi to'xtatilganligi uchun ko'pchilikda shahar markaziga kelish imkoni yo'q edi.

Ikkinchidan, odamlar o'zining va oilasining sog'lig'i uchun gavjum joylarga bormaslik harakatini qilyapti.

Shu bois, bunday yarmarkalar tashkil etilishidan ular minnatdor ekanliklarini bildirishdi.

- Shahar hokimligi tomonidan asosan markazdan uzoq bo'lgan mahalla hududlarida har kuni shunday yarmarkalar tashkil etilmoqda, - deydi shahar hokimining o'rinbosari F.Abdillazov. - Fuqarolarimiz karantin rejimiga qat'iy rioya qilib, ehtiyot choralarini ko'rishsa maqsadga muvofiq. Sababi shaharda oziq-ovqat jamg'armasi yetarli, xavotirga o'rin yo'q.

Shuningdek, yana bir xayrli ishga qo'l urildi. Shahardagi kam ta'minlangan oilalarga saxovatpesha tadbirkorlar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi.

2020-03-31 20:09:57